

XI-XV ASRLARDA ERON TARIXI

**Boboyev Ali O'tkir o'g'li**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi*

**Daniyorov Hasan Alisher o'g'li**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi*

**Jumayev Himoyiddin shuxrat o'g'li**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi*

**Safarov Bobomurod Bozor o'g'li**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Eronda XI - XV asrlar mobaynida bo'lib o'tgan siyosiy jarayonlar, sulolar o'rtasidagi kurashlar, so'fiylik tariqatlarining vujudga kelishi, Hasan ibn Sabbah tomonidan Hashshoshiylar davlati tuzulishi haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Buvayhiylar, Ahmad, Hasan, Ali, Fors, Isfahon, Bag'dod, Ray, Hamadon, Saljuqiylar, Hasan ibn Sabboh, Alamut, Kaspiy dengizi, Xulagu, Tabriz, Kichik Osiyo, Yoqut Hamaviy.*

Buvayhiylar 932-1062 yillarda G'arbiy Eronni boshqargan sulola bo'lib, sulolaga aka-ukalar Ahmad, Hasan va Ali asos solgan [ 1, 128-129 b.] . Ularning otasi Buvayh (sulola nomi uning ismidan olingan) Eron podshohi Bahrom Go'r naslidan bo'lib, Daylam (G'ilon viloyatining tog'li qismi) dagi jangari qavmlar sardori edi. Ular Bag'dodda 945-1055 yillarda hukmronlik qilgan G'ilon shialari uyushmasi hisoblanadi. Buvayhiylar Bag'dodni istilo qilishganidan so'ng, hukmdorlar o'zlarini "Shahanshox ul-a'zam malik ul-muluk" deb nomlashgan. Buvayhiylar 934-1062 yillarda Eronning janubi- g'arbidagi Fors, 932-1028 yillarda vaqti-vaqti bilan Ray va Isfahon viloyatlariga bo'linib turgan Jibol, 936-1048 yillarda Kirmon viloyatini, 945-1055 yillarda Bag'dod va hozirgi Iroq hududining katta qismini boshqarishgan. Eron Saljuqiylar davlati tarkibida. Saljuqiylar hukmdori To'g'rulbek (1038-1063) Ozarbayjon, Kurdiston, Ko'histonni zabt etib, 1055 yilda Bag'dodga kirib bordi va o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishga Bag'dod xalifasini majbur qildi va buvayhiylarni taxtdan ag'dardi. 1062 yili buvayhiylarning so'nggi mulki ham qo'ldan ketdi [ 1, 130 b. ] . 1040-1050 yillarda saljuqiylar qo'shini Eronning Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarini egallashdi.

1055 yili To'g'rulbek Bag'dodni egallagach, abbosiylar saljuqiylarga tobe bo'lib qolishdi. Butun Eron saljuqiylar ixtiyoriga o'tdi. Saljuqiylar davlati Amudaryodan Frotgacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olardi. Eronda ismoiliylar davlatining tashkil topishi. Saljuqiylar istibdodidan Erondagi turli oqimlar o'z marfaatinini ko'zlab harakat qila boshlaydi. Ulardan biri Ismoiliylar edi. Ismoiliylar guruhining Erondagi rahnamosi



Hasan ibn Sabboh (1051-1124) edi. 1090 yili ismoiliylar Elbrus tog'larida joylashgan Qazvin yaqinidagi Alamut (Burgut uyasi) qal'asini va Daylam, Ko'histon, Rudbar, Fors, shuningdek salibchilarga qo'shni Suriyaning Livan tog'laridagi bir qancha qal'alarini bosib olishdi. Shunday qilib, Eron va Suriyada markazi Alamut bo'lgan Ismoiliylar davlati tashkil topdi. Ismoiliylar (1090-1256)- markazi Alamut bo'lgan Eron tog'larida yashovchi shiaparast guruhlar tuzgan davlat. 1100 yilda Ismoiliylar orasidan hashshoshiylar guruhi ajralib chiqadi. Shuning uchun ismoiliylar hashshoshiylar nomi bilan mashhur bo'lgan. Shu guruh a'zosi Hasan ibn Sabboh Qohirada 1081 yili o'ziga tarafdorlar yig'a boshladi va ismoiliylar hukmdori bo'lib oldi, u "Piri buzurg" (Ulug' pir) deb atalgan.

1090 yili hashshoshiylarga qarshi kurash avjiga chiqqan paytda, Hasan ibn Sabboh Qohiradan qochadi va Kaspiy dengizining janubidagi G'arbiy Eronning tog'li joylariga borib o'rnashadi [ 1, 134-135 b. ]. Hashshoshiylar Alamut qal'asini egallab uni markazga aylantirishdi. Saljuqiylar shohi Malikshoh vafot etgach, toju-taxt uchun kurashlar boshlangan paytda Hashshoshiylar mustaqil davlat tuzishadi. Hasan ibn Sabboh davlat tuzgach, saljuqiylar davridagi soliqlarni bekor qildi, yo'l qurish, ariq qazish va qal'alar mudofaasini mustahkamlagan. Ismoiliylar davlati feodal davlat edi. Ismoiliylar davlatini xarob qilish, o'zlarini esa yo'q qilish mo'g'ullarga nasib etdi. 1256 yil Xulagu boshliq mo'g'ullar G'arbiy Osiyoga yurish davomida Alamutga hujum qilishdi va hashshoshiylarni qilichdan o'tkazishdi. Munkeni hokimiyat tepasiga kelgan 1251 yilgi qurultoyda Yaqin va Uzoq Sharqda mo'g'ullar bosib olmagan hududlarni egallashni tezlashtirishga qaror qilindi. Buning uchun Munkeni ukalari Xulagu (Eronga) va Xubilay (Xitoyga) boshliq qo'shin tayyorlandi. Xulaguning rejasi ismoiliylarni yo'q qilish, abbosiylarni bo'ysundirish va G'arbiy Osiyo mamlakatlari istilosini tugatishdan iborat edi.

1252 yili imperiya bo'ylab yurishga ommaviy tayyorgarlik boshlandi. Yurishga uluslardan har 10 kishidan 2 kishi, boshqacha aytganda, barcha mo'g'ullarning 5/1 qismi, Xitoydan mingga yaqin tosh otuvchilar, olov otuvchilar jalb qilindi [ 1, 140 b. ]. Xulagu qo'shinining umumiy soni 70 mingta edi. Xulagu qo'shini o'tadigan yo'llar yurishdan oldin qaroqchilardan tozalandi, daryolarga ko'priklar qurildi, yo'llarda oziq-ovqat zahiralari to'plandi. Xulagu 1253 yili Qoraqurumdan Eronga yurish boshladi, Yettisuv va O'rta Osiyo yerlarini ortda qoldirib 1256 yil Amudaryodan kechib o'tdi. 1256 yil oxirida nizoriylar yengildi, 1258 yil 10 fevral kuni Bag'dod shahri egallandi, 1260 yil 25 fevralda Damashq shahri to'liq bosib olindi. Xulagular (Elxoniyalar) – Chingizxon nevarasi Xulakuning avlodlari. XIII asr o'rtalari-XIV asr o'rtalarida Yaqin va O'rta Sharqda hukmronlik qilgan mo'g'ullar sulolasi. Xulagular davlati (1256-1353 yillarda mavjud bo'lgan) uning hukmdorlari elxon (ulus xoni degani) unvoniga ega bo'lishgan. Bu davlatning hududi-3,75 mln.km.kv. Poytaxti-Marog'a, Tabriz, Sultoniya va yana keyinchalik Tabriz. Davlat tili-mo'g'ul, turkiy va fors tillari [ 1, 145-146 b ].



Bu davlat mo'g'ullar imperiyasi parchalanishi jarayonida vujudga kelgan hamda Eron, Ozarbayjonni, hozirgi Afg'oniston va Turkmaniston hududining katta qismini, Kavkazoldi, Iroq, Kichik Osiyoni egallagan edi. Muzaffariylar sulolasi (1313-1393) – avval elxoniyarga tobe bo'lgan, so'ng Yazd shahrida barpo bo'lgan, keyinchalik Fors, Kirmon va Isfahon viloyatlarini boshqargan sulola. Poytaxti Sheroz shahri. Bu davlat Sohibqiron Amir Temur tomonidan 1387-1393 yillarda tugatilgan. Manbalarda yozilishicha, Samarqanddan Shenozgacha bo'lgan masofa 2200 chaqirim (1 chaqirim-1,5 km) ga teng bo'lgan. 1387 yilda Temur Janubiy Eron yerlarini egallab, Fors poytaxti Sherozda turgan paytda Oltin O'rda xonligiga o'zi o'tkazgan To'xtamishning Movarounnahrda bostirib kirganligi to'g'risida chopardan xabar oladi. Ana shu chopar shu masofani 17 kunda bosib o'tgan. Amir Temur Eronga qarshi 1386 yildan boshlab 1388 yilgacha “uch yillik”, 1392 yildan boshlab 1396 yilgacha “besh yillik”, 1399 yildan boshlab to 1404 yilgacha “yetti yillik” urushlar olib boradi. Eronning Qobushon, Tuyo, Nishopur, Sabzavor kabi shaharlari Temurga jangsiz taslim bo'ladi.

XIV asrning 30-80 yillarida Eronda mahalliy feodal davlatlar tuzishga urinishlar bo'ldi. O'zaro kurashuvchi feodallar mavjud ahvoldan norozi hunarmand va dehqonlarni o'ziga og'dirishga harakat qildi. Erondagi harakatlarning asosiy xususiyati ularda nafaqat dehqonlar, balki hunarmandlar va shahar kambag'allari ham qatnashganligi edi. Xalq harakatining birinchi bosqichi mo'g'ullar hukmronligiga barham berish va Chingizxonning yaso qonunlariga qarshi kurashishdan iborat bo'ldi. Xalq harakatining ikkinchi bosqichi, umuman, feodalizmga qarshi kurashishga qaratildi. Mo'g'ullar hukmronligining so'nggi davrlarida islom dini davlat dini deb e'lon qilingandi. Davlat sunniylikni qattiq himoya qilardi, lekin ayrim guruhlar shia aqidalariga tayanishni to'g'ri yo'l deb bilishdi. Shialar aqidasi oxirzamonda Mahdiy kelishi haqida tasavvurlar yetakchi o'rinda turadi (875 yili bedarak yo'qolgan 12 chi imom Mahdiyini nazarda tutishgan, ularning fikricha, Mahdiy osmonga chiqib ketgan va yaqin orada qaytishi kerak edi). Arab geografi Yoqut Hamaviy ma'lumoti bo'yicha, XIII asrda shialar ko'pchilikni tashkil qiluvchi Koshon shahri oqsoqollari har kuni tongda shahar darvozalaridan chiqib imom Mahdiy uchun jihozlangan oq otni olib har kuni kutishardi. Shuningdek, Eronda juda ko'p so'fiylik tariqatlari mavjud edi. Ularning ba'zilari shialik aqidalariga mos kelsa, ba'zilari qadimgi eroniy afsonalarga tayanar, boshqalarining esa umuman islomga aloqasi yo'q edi.

#### XULOSA

Buvayhiylar Bag'dodni istilo qilishganidan so'ng, hukmdorlar o'zlarini “Shahanshox ul-a'zam malik ul-muluk” deb nomlashgan. Buvayhiylar 934-1062 yillarda Eronning janubi- g'arbidagi Fors, 932-1028 yillarda vaqti-vaqti bilan Ray va Isfahon viloyatlariga bo'linib turgan Jibol, 936-1048 yillarda Kirmon viloyatini, 945-1055 yillarda Bag'dod va hozirgi Iroq hududining katta qismini boshqarishgan. XIV asrning 30-80 yillarida Eronda mahalliy feodal davlatlar tuzishga urinishlar bo'ldi.



O‘zaro kurashuvchi feodallar mavjud ahvoldan norozi hunarmand va dehqonlarni o‘ziga og‘dirishga harakat qildi. Erondagi harakatlarning asosiy xususiyati ularda nafaqat dehqonlar, balki hunarmandlar va shahar kambag‘allari ham qatnashganligi edi. Xalq harakatining birinchi bosqichi mo‘g‘ullar hukmronligiga barham berish va Chingizxonning yaso qonunlariga qarshi kurashishdan iborat bo‘ldi. Xalq harakatining ikkinchi bosqichi, umuman, feodalizmga qarshi kurashishga qaratildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sarimsokov A.A, Jahon tarixi (Osiyo va Afrika mamlakatlarining o‘rta asrlar tarixi), Namangan. 2019-yil. 128-152 b.
2. Большаков О. Г. История Халифата. Ч. 1. Ислам в Аравии (570-633). – М., 1989.
3. История стран Азии и Африки в средние века. – М., 1988.
4. История стран Азии и Африки в средние века. – М.: МГУ, 1968.
5. Курбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув методик қўлланма. – Т.: Учпедгиз, 1991.
6. Михайлова И. Б. Средневековый Багдад: некоторые аспекты социальной и политической истории города в середине X – середине XIII вв. – М., 1990
7. Семёнов В. П. Ўрта асрлар тарихи. – Т.: «Ўқитувчи», 1973.

